BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.F.08.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

PULATOV JAXONGIR NAZIROVICH

YANGI O‘ZBEKISTONNING BARQAROR RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: MILLIY MAQSAD VA VAZIFALAR (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL)

09.00.04. – Ijtimoiy falsafa

FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

UO‘K: 101.1:316:316/422.42(575.1)

Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философских наук (DSc)

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophical sciences (DSc)

Pulatov Jaxongir Nazirovich
Yangi O‘zbekistonning barqaror rivojlanish tendensiyalari: milliy maqsad va vazifalar (ijtimoiy-falsafiy tahlil).....3

Пулатов Жахонгир Назирович
Тенденции устойчивого развития Нового Узбекистана: национальные цели и задачи (социально-философский анализ)... 33

Pulatov Jakhongir Nazirovich
Sustainable development trends in New Uzbekistan: national goals and objectives (a socio-philosophical analysis).....67

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of works published.....73

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.F.08.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

PULATOV JAXONGIR NAZIROVICH

YANGI O‘ZBEKISTONNING BARQAROR RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: MILLIY MAQSAD VA VAZIFALAR (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL)

09.00.04. – Ijtimoiy falsafa

Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.DSc/Fal108 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Navoiy davlat universitetitida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Safarova Nigora Olimovna** falsafa fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Teshayev *Nutfullo* Nasrulloyevich** falsafa fanlari doktori, professor
	Jo‘rayev Narzulla Qosimovich siyosiy fanlar doktori, professor
	Sharipova Oygul Tursunovna falsafa fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Buxoro davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.F.08.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “28” oktyabr soat 13⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65)221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1038- raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65)221-29-14; faks: (0365)221-29-14.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “10” Oktyabr kuni tarqatildi.

(2026-yil “10” Oktyabr dagi 29 raqamli reyestr bayonnomasi.)

B.B. Namozov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

A.Z. Sharipov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

F.D. Muzaffarov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o‘rinbosari,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda global o‘zgarishlar, ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi, geosiyosiy beqarorlik, texnologik transformatsiyalar va iqtisodiy tizimlarning o‘zaro bog‘liqligi yuz berayotgan sharoitda mamlakatlar barqarorligini ta’minlash, tinchlikni mustahkamlash, ochiq, inklyuziv jamiyat qurishga o‘tish taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishlari sifatida e’tirof etilmoqda. Shu jihatdan inson, uning sha’ni, qadr-qimmati, huquq va imkoniyatlari kafolatini ta’minlash, mehnatini qadrlash, insoniyat kelajagi va taqdiri uchun qayg‘urishga qaratilgan yangicha yondashuv modellarini ishlab chiqish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Ayniqsa, inson hayoti sifati, ijtimoiy adolat, inklyuzivlik, ekologik muvozanat, kelajak avlodlar manfaatlarini ta’minlash mezonlarini, barqaror rivojlanishning umuminsoniy mohiyati bilan bir qatorda uning muayyan jamiyatning tarixiy tajribasi, milliy manfaatlari, qadriyatlari va strategik maqsadlariga muvofiq namoyon bo‘lish xususiyatlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo ilm-fani va strategik tadqiqot markazlarida barqaror rivojlanish maqsad va vazifalari, kambag‘allikka barham berish, inklyuziv jamiyatni yaratish, xavfsizlikni ta’minlash, barqaror rivojlanish yo‘lida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Zamonaviy taraqqiyot strategiyalari barqarorlik va rivojlanish o‘rtasidagi dialektik munosabatni, global maqsadlarning milliy taraqqiyot strategiyalariga transformatsiyasini, inson va jamiyat manfaatlari muvozanati, milliy maqsadlarning iyerarxiyasi, taraqqiyotning moddiy va ma’naviy omillarini tadqiq etishni taqozo etadi. Shu sababli barqaror rivojlanishning iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, siyosiy-institutsional va ma’naviy tarkibiy qismlarini dialektik yaxlitlikda asoslash hamda milliy rivojlanish modellarining umumiy va xususiy qonuniyatlarini aniqlash zarurati ortib bormoqda.

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, institutsional va ma’naviy islohotlar Birlashgan Millatlar Tashkilotining barqaror rivojlanish maqsadlariga mos ravishda amalga oshirilib, inson qadri, ijtimoiy adolat, inklyuziv iqtisodiy o‘sish, kambag‘allikni qisqartirish, sifatli ta’lim va tibbiy xizmat, ekologik barqarorlik kabi yo‘nalishlar barqaror rivojlanishning milliy mazmunini belgilamoqda. “Barqaror rivojlanish maqsadlari inson qadri va uning shaxsiy, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ekologik va rivojlanish huquqlarini ta’minlash bilan bog‘liq zamonaviy qarashlarni o‘zida jamlagani bilan ham ahamiyatlidir. Bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ushbu huquqlar barqaror rivojlanishning uch muhim sharti hisoblangan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik sohalarda ham o‘zaro muvozanatli, integratsiyalashgan va kompleks yondashuvga asoslangan taraqqiyotni nazarda tutadi”[1]. Shu bois, xalqimiz ongida yangilanayotgan O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisi bo‘lish, yangicha dunyoqarash tuyg‘usini shakllantirish, milliy taraqqiyotning ustuvor maqsad va vazifalarning ijtimoiy mohiyati, qadriyaviy asoslari, o‘zaro iyerarxik aloqadorligi, amalga oshirish mexanizmlari va

[1]Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. –Тошкент: “O‘zbekiston”, 2024. –Б.11.

istiqboldagi natijalarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan asoslash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030 strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2022-yil 11-maydagi PQ-240-son “Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining ‘yashil’ iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarorlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 83-son “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori hamda mavzuga oid boshqa normativ huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi[2]. Bugungi kunda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan barcha mamlakatlar taraqqiyotini rivojlantirishga yo‘naltirilgan Barqaror rivojlanish maqsadlari va vazifalariga erishish darajasini baholash, davlatlarning BRM ko‘rsatkichlari bo‘yicha qiyosiy holatini aniqlash, indikatorlar va monitoring tizimlarini takomillashtirish bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalarida, jumladan, BMTning Barqaror rivojlanish yechimlari tarmog‘i (Sustainable Development Solutions Network (SDSN)) doirasida milliy va global miqyosdagi natijalar statistik indikatorlar asosida tahlil qilinib, barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda davlat boshqaruvi, institutsional salohiyat, moliyalashtirish va xalqaro hamkorlikning hal qiluvchi ahamiyati Human Development Index (BMT), United Nations Development Programme (UNDP), Education Development Center (AQSh), Bellevue University (AQSh), National Institute for Educational Policy Research of Japan (Yaponiya), Yuksalish umummilliy harakati, Taraqqiyot strategiyasi hamda Inson huquqlari bo‘yicha

[2] Dissertasiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi: https://www.philosophy-of-education; https://www.contemplativelife; www.columbia.edu; https://mally.stanford.edu; https://discover; https://www.unipage.net; https://inpsycho.ru/; https://www.samdu.uz/cy va boshqa manbalar asosida amalga oshirilgan.

milliy markaz, Navoiy davlat universiteti (O‘zbekiston) tomonidan muammoning metodologik jihatlarini qamrab oluvchi salmoqli tadqiqotlar olib borilmoqda.

Dunyoda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ilgari surilgan barqaror rivojlanish maqsadlarining mamlakatlar taraqqiyoti, xalqlar farovonligiga ta’siri hamda kelajak uchun ham munosib shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarda qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: inson huquq va imkoniyatlarini kafolatlash, inson kapitalini rivojlantirish, qashshoqlikning barcha ko‘rinishlariga barham berish, majburiy mehnatni barcha shakllarini tugatish, ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish, iqlim migratsiyasi, toza ichimlik suvi, tabiatga zararsiz tarzda xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish, ochiq va inklyuziv jamiyatni shakllantirish hamda global va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish masalalari ilmiy jihatdan asoslangan (Human Development Index (BMT), (United Nations Development Programme (UNDP)); ishlab chiqarish tarmoqlariga ilm-fanda erishgan natijalarni, aholining barcha qatlamlari uchun ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, nazariy jihatdan ilmiy asoslarga ega, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shadigan loyihalarni amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan o‘quv mashg‘ulotlarini ishlab chiqish, mashg‘ulotlarni o‘zlashtirishga qaratilgan oflayn, onlayn hamda masofaviy o‘quv shakllarini yo‘lga qo‘yish, ta’lim oluvchilarni yodlashga emas, tushunishga asoslangan bilim, malaka, ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ta’lim kontentlari va platformalarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy qilish, o‘quvchilarda mantiqiy, tanqidiy, kreativ fikrlashini rivojlantirishga asoslangan formativ va summativ baholash tizimini amaliyotga joriy etish (Education Development Center (AQSh)); inson, uning sha’ni, qadr-qimmati, huquq va manfaatlarini himoya qilishdek umuminsoniy g‘oya milliy va madaniy tafovutlardan ustun turuvchi yagona birlashtiruvchi kuch ekanligi, jamiyatda istiqomat qiladigan turli millat vakillarini umumiy adolat hamda yagona maqsad sari birlashish yo‘lida uzviy jipslashtirishi aniqlangan (Western Michigan University, The University of Arizona, AQSH); barqaror taraqqiyot milliy va umuminsoniy qadriyatlar orqali oziqlanishi, ma’naviy barqarorlikning jamiyat taraqqiyoti rivojidagi me’yorlar ilmiy-nazariy asoslangan (Hiroshima University, Yaponiya); mamlakatda olib borilayotgan islohotlarning mazmuni va mohiyati, ularning amaliy natijalari, davlat bilan xalq o‘rtasida ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish hamda jamoatchilik nazoratini rivojlantirish barqaror rivojlanishning asosiy mexanizmi sifatida asoslangan (Taraqqiyot strategiyasi markazi, Navoiy davlat universiteti, O‘zbekiston).

Dunyoda barqaror taraqqiyotga erishishni ta’minlashga oid muammolarni tadqiq etish bo‘yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda ilmiy ishlar olib borilmoqda: aholini ijtimoiy himoya qilish mexanizmlarining manzilliligi va samaradorlik darajasini kuchaytirish; jamiyatda tenglik prinsipini ta’minlash; kambag‘allikka barham berish; toza suv, sog‘lik va farovonlik; arzon va tabiiy energiya; yashil makon; yashil iqtisodiyot; munosib ish o‘rinlarini yaratish; xavfsiz va zamonaviy energiya ta’minotini yaratish; aholi salomatligini asrash va turli yuqumli kasalliklarga qarshi kurashishni ta’minlash hamda turli infeksion kasalliklar bilan chalinganlik darajasini erta aniqlash va uning oldini olish mexanizmlarini ishlab chiqish.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Inson, jamiyat, davlat o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni ta’minlash, inson huquq va imkoniyatlarini kafolatlash, barqaror, taraqqiyot, rivojlanish, farovonlikka doir konseptual g‘oyalar barcha mamlakatlarda jamiyatshunos, faylasuf, iqtisod va huquqshunos olimlar tomonidan tadqiq etilib kelinmoqda. Yangi O‘zbekistonning barqaror rivojlanish tendensiyalari: milliy maqsad va vazifalar mazmun-mohiyatini bugungi davr talablari prizmasida ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev asarlarida yangicha konseptual asosda ilgari surilgan muammolarning amaliy yechimlari alohida o‘rin egallaydi[3]. Shuningdek, ushbu dissertatsiya ishi doirasida tadqiqotlar olib borgan izlanuvchilarni quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

Birinchi guruhga – jahonda barqaror rivojlanish, taraqqiyot, iqtisodiy farovonlikka oid izlanishlar olib borgan xorijlik tadqiqotchilarni kiritish mumkin. Xususan, D.Kellner, A.Merko, R.Buckman kabi olimlar jamiyat barqarorligini ta’minlashda ta’limning o‘rni, ijtimoiy kapitalning ahamiyatini o‘z tadqiqotlarida asoslab bergan. Ernando de Soto barqarorlik va taraqqiyot mulk va undan foydalanish, tasarruf etish hamda mulk daxlsizligini ta’minlashga bog‘liq jarayon ekanligiga oid ilmiy-nazariy gipotezani ilgari surgan. I.Murdoch inson barcha kuch va imkoniyatlarini ezgu maqsadlarga safarbar etib, o‘zida mavjud bo‘lgan xudbinlikdan voz kechgan taqdirdagina jamiyat barqarorligiga o‘z hissasini qo‘shishi mumkinligiga oid falsafiy qarashlarini uchratish mumkin. D.H.Meadovs, D.L.Meadovs, J.Randers va U.U.Behrens tomonidan ishlab chiqilgan “o‘sish chegaralari” konsepsiyasi ko‘rsatib berilgan. Barqaror rivojlanishning iqtisodiy va ekologik asoslarini ishlab chiqishda H.Dali, R.Costanza, R.Gudland, J.Elkington kabi tadqiqotchilarning ilmiy qarashlari alohida ahamiyatga ega. Barqaror rivojlanishning inson omili va ijtimoiy adolat bilan bog‘liq jihatlari A.Sen, M.Nussbaum, M.Haq va J.Stiglitz tadqiqotlarida rivojlantirilgan. Institutsional va boshqaruvga oid jihatlari E.Ostrom, D.Norz, R.Putnam, J.Sachs va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida yoritilgan. Barqaror rivojlanishning zamonaviy global modeli va Barqaror rivojlanish maqsadlarini konseptual asoslashda J.Rockstrum, U.Steffen, K.Ravorz kabi olimlarning tadqiqotlari muhim o‘rin tutadi. Ekologiya, atrof-muhitni asrash, ekoturizmni rivojlantirish barqaror taraqqiyotning muhim omillariga doir masalalar R.Di Silvestro, Harshavardhan Reddy Kummitha, L.Dueyer kabi olimlar tomonidan atroflicha tadqiqot ishlari olib borilgan[4].

---

[3] Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2021. – Б.195.; Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон.–Тошкент: “O‘zbekiston”, 2024.– Б.14.;

[4]Kellner Douglas. The Frankfurt School and British Cultural Studies. The Missed Articulation. http://www.gseis.ucla.edu/faculty/kellner/kellner.; Мерко А.И. Социалъно-ответственный бизнес-и заимосвязъ государственной и корпоративной политики в глобализируюшемся мире. Монография. -М.: 2009.-С.180.; Buckman R.H. Building a Knowledge-Driven Organization. -Mc Graw-Hill, 2004.-P.132.; Эрнандо де Сото. Загадка капитала. -М.: Олимп-Бизнес, 2004. – С. 272.; Murdoch I. Sartre: Romantic Rationalist. - London: Bowes & Bowes, 1953. –P. 78.Dwyer, Larry, and Chulwon Kim. Destination Competitiveness: determinants and indicators. Current Issues inTourism, 2003.; Di Silvestro R. Reclaiming the Last Wild Places: a new agenda for biodiversity. – New York, Chichester, Brisbane: John Willey and Sons, Inc., 1993.; Harshavardhan Reddy Kummitha Doctor of Philosophy dissertation on «Social entrepreneurship and Ecotourism: the role of social entrepreneurs in Ecotourism Sustainable Development». Kaposvar university, - Hungary, 2019. Meadows D.H., Meadows D.L., Randers J., Behrens W.W. III. The Limits to Growth: A Report for the Club of Rome’s Project on the Predicament of Mankind. – New York: Universe Books, 1972; Daly H.E. Steady-State Economics: The Economics of Biophysical

Ikkinchi guruhga – MDHda barqaror rivojlanish, inson taraqqiyoti, rivojlanish tendensiyalari, inson turmush tarzini ta’minlashning iqtisodiy va huquqiy mexanizmlari bilan bog‘liq tadqiqotlar bilan V.Churkin, S.Dyatlov kabi olimlar ajralib turadi. Shuningdek, A.Ageyev, M.Shkaratan, T.Zaslavskaya, V.Radayev va boshqalar jamiyat barqarorligining iqtisodiy omillarini, tadbirkorlik faoliyati va uning iqtisodiy jihatlarini tadqiq etishgan. R.Sartayeva, F.Boboyeva, A.Naima Zode kabi tadqiqotchilar esa, barqaror taraqqiyotning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarini tadqiq etganlar. N.N.Moiseev, A.D.Ursul, V.I.Danilov-Danilyan va boshqa tadqiqotchilar barqaror rivojlanishni insoniyat va biosferaning koevolyutsiyasi, sivilizatsion taraqqiyotning yangi modeli, ekologik xavfsizlik hamda global boshqaruv muammolari bilan bog‘liq holda o‘rganganlar[5].

Uchinchi guruh - so‘nggi yillarda O‘zbekistonda inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, inson qadri va ijtimoiy adolat, ochiqlik, shaffoflik, xalq xizmatidagi boshqaruv, milliy o‘zlikni anglash, umuminsoniy qadriyatlar, fuqarolik jamiyati, iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish, sun’iy intellekt, ishsizlikni oldini olish, tengsizlikni barcha ko‘rinishlariga barham berish kabi masalalar doirasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Jumladan, A.Saidov, Q.Nazarov, S.Otamuratov, N.Jo‘rayev, N.Safarova, S.Choriyev, A.Xuseynova, X.Salomova, N.Teshayev, O.Sharipova va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida demokratik o‘zgarishlar, barqarorlik va o‘zgaruvchanlik dialektikasi, vatan va millat istiqboli uchun mas’ullikni anglash, jamiyat taraqqiyotiga to‘siq bo‘ladigan turli tahdidlarga qarshi kurashishning tarixiy-falsafiy aspektlariga oid muammolar tadqiq etilgan. I.Abdullayeva, Sh.Negmatova, L.Djurayev va boshqa olimlar asarlarida jamiyat barqaror rivojlanishining iqtisodiy tendensiyalariga doir ilmiy qarashlarni bayon qilgan. A.Erkayev, A.Sharipov, A.Xudoyqulov, B.Turdiyev, J.Yaxshilikov, N.Muxammadiyev kabi tadqiqotchilar esa, Yangi O‘zbekistonda Uchinchi

---

Equilibrium and Moral Growth. – San Francisco: W.H. Freeman, 1977; World Commission on Environment and Development. Our Common Future. – Oxford: Oxford University Press, 1987; Ostrom E. Governing the Commons: The Evolution of Institutions for Collective Action. – New York: Cambridge University Press, 1990; North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990; Sen A. Development as Freedom. – New York: Alfred A. Knopf, 1999; Sachs J.D. The Age of Sustainable Development. – New York: Columbia University Press, 2015; Purvis B., Mao Y., Robinson D. Three pillars of sustainability: in search of conceptual origins // Sustainability Science. – 2019. – Vol. 14. – P. 681–695.

[5] Чуркин В.Е. Некоторые элементы общего и особенного в мусульманской правовой культуре // Государство и право. 2012. №. 10.; Дятлов С.А. Теория человеческого капитала: Учебное пособие. – Санк Петербург: СПбУЭФ, 1996. – 72 с.; Агеев А.И. Предпринимательство: проблемы собственности и культуры. – М.,1991. – 112 с.; Шкаратан М.О. Феномен предпринимателя: интерпретация понятий. – М., 1993. – 1-10 с.; Заславская Т. Бизнес-слой российского общества: сущность, структура, статус// Общественные науки и современность. –№1.– с. 22. Радаев В.В. Экономическая социология. Курс лекций: Учеб. пособие. – М.: Аспект Пресс, 2011. – 368 с.; Сартаева Р. Инсон экологияси, янги онтология ва Қозоғистоннинг барқарор ривожланиши. (Монография)- Казакистан, 2012.; Boboyev F.J. Iqtisodiy barqarorlikning mexanizmlari. Iqt.f.d. (PhD) diss. avtoref. -Qirg‘iziston, 2019.; Zode Naima. Inson kapitalining rivojlanish xususiyatlari. Iqt. f.d. (PhD.) diss. avtoref- Tajikistan, 2018. Данилов-Данильян В.И., Лосев К.С. Экологический вызов и устойчивое развитие. – М.: Прогресс-Традиция, 2000. – 414 с.; Гранберг А.Г., Данилов-Данильян В.И., Циканов М.М., Шопхоев Е.С. (ред.) Стратегия и проблемы устойчивого развития России в XXI веке. – М.: Экономика, 2002. – 414 с.; Ващекин Н.П., Делокаров К.Х., Урсул А.Д. Образование и устойчивое развитие: концептуальные проблемы. – М.: Московский государственный университет коммерции, 2001. – 332 с.; Ильин И.В., Урсул А.Д., Лось В.А. Устойчивое развитие и глобальные процессы. – М.: Издательство Московского университета, 2015. – 445 с.; Соловьева С.В., Бобылев С.Н., Порфирьев Б.Н. и др. Устойчивое развитие: вызовы РИО. – М.: РА ИЛЬФ, 2013. – 202 с

Renessans asoslarini yaratishning tarixiy aspektlari, yangi taraqqiyot bosqichida amalga oshirilayotgan islohotlar tasnifi hamda fuqarolik jamiyati rivojlanishiga doir masalalar talqin etiladi[6].

Mazkur tadqiqotlarning ilmiy natijalari Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining ekologik barqarorlik, ijtimoiy konsolidatsiya, ma’naviy qadriyatlar, ijtimoiy davlat, modernizatsiya, tadbirkorlik, inson kapitali, urbanizatsiya va ma’naviy taraqqiyot kabi alohida komponentlarini ochib berishga xizmat qilgan. Biroq ushbu tadqiqotlarda Yangi O‘zbekistonning barqaror rivojlanish tendensiyalari BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari, milliy manfaatlar, milliy maqsad va vazifalar iyerarxiyasi, strategik vorislik hamda ularni amalga oshirishning iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, institutsional va ma’naviy mexanizmlari bilan yaxlit ijtimoiy-falsafiy tizim sifatida maxsus tadqiq etilmagan. Mazkur dissertatsiyada barqaror rivojlanishning obyektiv va subyektiv omillarini, milliy va umuminsoniy tamoyillar dialektikasini, strategik maqsadlarning transformatsion xususiyatlarini tadqiq etishga alohida e’tibor qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Navoiy davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band “Barkamol inson shaxsini shakllantirish va uning ijtimoiy-pedagogik mohiyati” (2022-2026 yy.) nomli tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Yangi O‘zbekistonning barqaror rivojlanish yo‘nalishlari va ularning jamiyat farovonligini oshirishdagi o‘ziga xos rolini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

barqaror rivojlanishga xos ijtimoiy-falsafiy kategoriyalarning mazmuni, tuzilishi va nazariy-metodologik asoslarini hamda o‘zaro aloqadorligini tizimlashtirish;

---

[6] Саидов А. Философско-правовое наследие Иммануила Канта и современная юриспруденция. –Ташкент: -2008.-С.228.; Nazarov Q.N. Qadriyatlar tizimi: Barqarorlik va o‘zgaruvchanlik dialektikasi (aksiologiyaning ijtimoiy-falsafiy muammolari) Fal. fan. dok. diss…. – Toshkent, 1997.316 б.; Отамуратов С. Глобаллашув: миллатни асраш масъулияти.–Тошкент: Ўзбекистон, 2018.- В. 346.; Жўраев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари. –Тошкент: Маънавият, 2008.- Б.459.; Сафарова Н. Терроризм (тарихий-фалсафий таҳлил).- Тошкент: Ношир, 2009.-Б.214.; S.Choriyev. Siyosiy ijtimoiylashuv.-Qarshi.2024.-B.115.; Хусейнова А.А. Янги Ўзбекистон шароитида инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилишнинг асосий омиллари//Журнал правовых исследований. – Тошкент, 2022. -№.5. – Б.92-99.; Salomova H.Yu. Meyorning falsafiy mohiyati va amaliy ahamiyati. – Buxoro: Durdona, 2018. –B.196.: Teshayev N.N. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ma’naviy omillari va mafkuraviy tamoyillari: Fals. fan. dok (DSc)… dis. avtoref. – Buxoro: BuxDU, 2024. – 76 b.; Sharipova O.T. Yoshlar tarbiyasida islomiy qadriyatlar, zamonaviy tahdidlarga qarshi ma’naviy qalqon// FarDU ilmiy xabarlari.-Farg‘ona, 2026.-№ 2 -B.44-47.: Abdullayeva I. Milliy taraqqiyotning yangi bosqichida iqtisodiy va innovatsion tafakkur uyg‘unligi. Fal.f..d (PhD) diss.avtoref. – Samarqand: SamDU, 2019.; Negmatova Sh. Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida sog‘lom raqobatni rivojlantirishning ma’naviy, axloqiy va huquqiy jihatlari. Fal.f.d (DSc) diss. avtoref. – Samarqand: SamDU, 2018.; Djurayev L. Zamonaviy O‘zbekiston jamiyatida yoshlar iqtisodiy madaniyatining transformatsiyalashuvi – innovatsion sotsiomadaniy fenomen sifatida. Fal.f.d (DSc) diss.avtoref. – Samarqand: SamDU, 2021. Эркаев А. Янги Ўзбекистон: мўлжал-Учинчи ренессанс.-Тошкент: Маънавият, 2021.-Б.96.; Шарипов А. Янги Ўзбекистонда маънавий-мафкуравий ислоҳотлар трансформациясининг ижтимоий-фалсафий таҳлили. Фалс.фан.док.(DSc)…дисс.автореф.-Бухоро:БухДУ, 2021.; Худайқулов А. Жамият ижтимоий ривожланишида иқтисодий онгнинг роли. Фал.ф.н. дисс.автореф. – Тошкент: ЎзМУ, 2005.; Turdiyev B.S. Yangi O‘zbekiston jamiyati ijtimoiy taraqqiyoti ideosferasidagi o‘zgarishlar dinamikasi: Fals. fan. dok (DSc)… dis. avtoref. – Buxoro: BuxDU, 2024. – 80 b.; Яхшиликов Ж., Мухаммадиев Н. Миллий ғоя: Ўзбекистонни ривожлантириш стратегияси. –Тошкент: Чўлпон, 2018. – Б. 722.

barqaror rivojlanish konsepsiyasining umuminsoniy tamoyillari, metodologik mezonlari va funksional xususiyatlarini asoslash;

Yangi O‘zbekistonda barqaror rivojlanish milliy maqsadlarining shakllanishi va transformatsiyasini ochib berish, ularning global Barqaror rivojlanish maqsadlari, milliy manfaatlar va jamiyat ehtiyojlari bilan o‘zaro bog‘liqligini aniqlash;

Yangi O‘zbekistonning barqaror rivojlanish tendensiyalari: milliy maqsad va vazifalarining ustuvor yo‘nalishlari va iyerarxik tuzilishini asoslash;

Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy omillarini aniqlash, ularning funksional o‘rnini hamda “Ijtimoiy audit”ning inson huquq va manfaatlarini ta’minlashdagi rolini ochib berish;

Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishda barqaror taraqqiyotning ijtimoiy-ma’naviy va aksiologik omillarini asoslash;

Yangi O‘zbekiston barqaror rivojlanishining istiqboldagi ustuvor yo‘nalishlari, amaliyotdagi natijadorligini asoslash hamda bu borada ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida Yangi O‘zbekistonning barqaror rivojlanish jarayonlari, ularning milliy maqsad va vazifalar bilan o‘zaro bog‘liqligi hamda jamiyat taraqqiyotidagi namoyon bo‘lish xususiyatlari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti Yangi O‘zbekistonning barqaror rivojlanish tendensiyalarining o‘ziga xos xususiyatlari, ularni amalga oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, institutsional va ma’naviy mexanizmlari hamda milliy maqsad va vazifalarining amaliy ahamiyatini ilmiy asoslash bilan belgilanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ilmiy bilishning dialektik tahlil, tizimli yondashuv, qiyosiy-tipologik, tizimli va faktorial tahlil, germenevtik tahlil, kontent-tahlil, umumlashtirish, modellashtirish kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Yangi O‘zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda inson manfaatlari va qadr-qimmati ustuvorligi, ijtimoiy adolat va shaxs salohiyatini ro‘yobga chiqarishga yo‘naltirilgan insonparvarlik xususiyatlari konseptual jihatdan ochib berilib, uning jamiyat taraqqiyotini yangi sifat bosqichiga olib chiqishda ijtimoiy ehtiyojlarni milliy manfaatlarga, milliy manfaatlarni strategik maqsadlarga, strategik maqsadlarni amaliy vazifalarga transformatsiyalovchi tizimli-metodologik paradigma hamda barqaror rivojlanishning harakatlantiruvchi omili ekanligi dalillangan.

jamiyatda “ijtimoiy audit” faoliyatini rivojlantirishning tizimli-institutsional (davlat–jamiyat–fuqaro o‘rtasidagi ochiqlik, hisobdorlik va o‘zaro mas’uliyat), funksional (ijtimoiy ehtiyoj – jamoatchilik monitoringi – baholash – boshqaruv qarorini takomillashtirish) va monitoring (fuqaro, fuqarolik jamiyati institutlari, jamoatchilik kengashlari, ekspertlar, davlat organlari hamkorligi) kabi mexanizmlari fuqarolarda islohotlarga daxldorlik, ijtimoiy mas’uliyat va tashabbuskorlikni kuchaytirishi asoslangan.

milliy qadriyatlar va milliy mentalitet transformatsiyasida “hech kimni unutmaslik va ortda qoldirmaslik” tamoyilining inson qadri, ijtimoiy adolat, teng huquqlilik va farovonlikning barcha fuqarolar uchun universal qadriyat sifatida

amal qilishi hamda turli ijtimoiy qatlam va guruhlarning ehtiyojlari, imkoniyatlari hamda ijtimoiy holatini differensial hisobga olish “ehtiyojni aniqlash – manzilli qo‘llab-quvvatlash – teng imkoniyat – ijtimoiy inklyuziya – farovonlik” asosida ijtimoiy tengsizlikni yumshatish, turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiluvchi inklyuziv barqaror rivojlanish konsepsiyasi ekanligi aniqlashtirilgan;

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida demografik dividenddan unumli foydalanish va jamiyatda ijobiy ijtimoiy muhitni qaror toptirish uchun hududiy o‘ziga xoslik, real vaqt talablari hamda ijtimoiy munosabatlar tizimini, avlodlararo tenglik tamoyilini o‘zaro uyg‘unlikda inobatga olish zarurati asoslab berilgan;

Yangi O‘zbekistonning barqaror taraqqiyotini ta’minlashda inson kapitalini rivojlantirish, sifatli ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish hamda ijtimoiy himoya mexanizmlari samaradorligini oshirishga qaratilgan strategik vazifalarning amaliy natijadorligini tarmoqlararo integratsiya, funksional uzviylik, indikatorlarning o‘zaro muvofiqligi asosida kuchaytirish imkoniyatlari ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

BMT tomonidan e’lon qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlaridagi ustuvor vazifalar doirasida qisqa hamda o‘rta muddatli maqsadlar O‘zbekiston miqyosida amalga oshirilayotgan islohotlarga mos holda umumlashtirilgan bo‘lib, olingan xulosa va ilmiy natijalar turli ijtimoiy-siyosiy hamda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning samaradorlik darajasini yuksaltirishda amaliy asos bo‘lib xizmat qilgan.

Yangi O‘zbekistonning barqaror rivojlanish milliy maqsad va vazifalarini amalga oshirish samaradorligini kompleks baholashning ijtimoiy (farovonlik, tenglik, ijtimoiy himoya, bandlik, ta’lim, sog‘liq) inklyuzivlikni, iqtisodiy (barqaror o‘sish, unumdorlik, innovatsiya, hududiy mutanosiblik) samaradorlikni, ekologik (resurs tejamkorligi, yashil iqtisodiyot) tabiat-jamiyat muvozanatini, ma’naviy (inson qadri, mas’uliyat, qadriyatlar, fuqarolik faolligi) barqaror rivojlanish madaniyatini kabi yo‘nalishlari asosida belgilab berilgan.

Yangi O‘zbekistonda barqaror rivojlanishni ta’minlashda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik va institutsional xususiyatlarini hisobga olgan holda barqaror rivojlanish ko‘rsatkichlarini differensial baholash hamda mavjud muammolarni aniqlashga qaratilgan monitoring va diagnostik yondashuvlarning ahamiyati aniqlashtirilgan;

barqaror rivojlanish milliy maqsad va vazifalarini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish, monitoring va baholash tizimini kuchaytirish hamda strategik boshqaruv samaradorligini oshirishda jamoatchilik nazorati subyektlari, ijtimoiy audit, demografik dividend imkoniyatlari hamda iqlim migratsiyasi kabi ilmiy muammolarning tahliliy yechimlari bo‘yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma’lumotlar, birlamchi manbalarga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab

chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o‘tkazilganligi, ta’lim tarbiya muassasalari va mahallalarda o‘tkazilgan sotsiologik so‘rovnomalar va tadqiqot ishi natijalari bo‘yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo‘lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Yangi O‘zbekistonning barqaror rivojlanish tendensiyalarini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan yaxlit tizim sifatida tahlil qilish, barqaror taraqqiyotning nazariy-metodologik asoslarini milliy manfaatlar, strategik maqsadlar va ijtimoiy ehtiyojlar bilan uzviy bog‘liqlikda ochib berishda, barqaror rivojlanishning ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik, institutsional va ma’naviy omillari o‘rtasidagi funksional aloqadorlikni izohlovchi konseptual yondashuvlar, milliy maqsad va vazifalarning shakllanish hamda transformatsiya xususiyatlari, ularning strategik vorislik asosida rivojlanish qonuniyatlari ilmiy jihatdan umumlashtirishga qaratilgan tadqiqot ishlarida, shuningdek, tadqiqot natijalari milliy taraqqiyot maqsadlarining iyerarxik va funksional tuzilishini aniqlash, ularni amalga oshirish mexanizmlarini tizimlashtirish hamda Yangi O‘zbekistonning barqaror rivojlanish modelini takomillashtirishga doir ilmiy izlanishlarda metodologik asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy xulosa, konseptual yondashuv va tavsiyalardan Yangi O‘zbekistonda barqaror rivojlanish bo‘yicha davlat va jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, milliy maqsad va vazifalarni takomillashtirish, ularning bajarilish samaradorligini baholash mezonlari hamda indikatorlarini ishlab chiqishda, davlat dasturlari, hududiy rivojlanish konsepsiyalari va strategik rejalashtirish hujjatlarini takomillashtirishda, shuningdek, “Taraqqiyot strategiyasi” markazi, “Inson huquqlari bo‘yicha milliy markaz”, Gender tenglik, bolalar huquqlarini himoya qiluvchi tashkilotlar faoliyatida, oliy ta’lim muassasalarida “Ijtimoiy falsafa”, “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” kabi fanlarni o‘qitishda, maxsus kurslar, o‘quv qo‘llanmalar va metodik tavsiyalar tayyorlashda ham foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yangi O‘zbekistonning barqaror rivojlanish tendensiyalari bilan bog‘liq muammolarni tadqiq qilish borasida olingan ilmiy natijalar asosida:

Yangi O‘zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar markazida inson manfaatlari va qadr-qimmati ustuvorligi falsafaning atributiv kategoriyalari kesimida tadqiq etilib, uning jamiyatni makon va zamon o‘lchovlarida yangi sifat bosqichiga olib chiquvchi tizimli poydevor va bosh harakatlantiruvchi kuch ekanligiga oid nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan “Noila” ijtimoiy ko‘mak, huquqiy targ‘ibot va monitoring markazining 2023-yilda bajarilgan 83-09/134-son “Huquqni anglash-mas’uliyat hissini rivojlantiradi” nomli loyihasida belgilangan I yo‘nalishining 7-bandidagi ustuvor vazifalarni amalga oshirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi NNT va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondining 2026-yil 18-fevraldagi

01-06/43-son ma’lumotnomasi). Natijada, jamiyat barqaror taraqqiyotiga erishishning asosiy omillari: iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy investisiya, inson huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, asosiy ehtiyojlarni qondirish, iitimoiy himoya tizimini takomillashtirish kabi g‘oyalarining mohiyati Yangi O‘zbekiston barqaror taraqqiyotini ta’minlashga xizmatqilgan;

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida aholi salohiyatidan (demografik dividenddan) unumli foydalanish va jamiyatda ijobiy ijtimoiy muhitni qaror toptirish uchun hududiy o‘ziga xoslik, real vaqt talablari hamda ijtimoiy munosabatlar tizimini, shu bilan birga, barqaror rivojlanishning falsafiy asosi bo‘lgan avlodlararo tenglik tamoyilini o‘zaro uyg‘unlikda inobatga olish zaruratiga oid taklif va tavsiyalaridan O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2024-yilga mo‘ljallangan “Yoshlarning intellektual salohiyatini yuksaltirish, ularni bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish va huquqiy savodxonligini oshirish, shuningdek, besh muhim tashabbus doirasida mahalla, sektor, tuman (shahar) va hududlarda tashkil etiladigan chora-tadbirlar” rejasidagi yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, intellektual salohiyatini yuksaltirishga oid tadbir va loyihalarni amalga oshirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2025-yil 30-iyuldagi 2-13-21-4153-son ma’lumotnomasi). Natijada, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyatini teran anglagan holda, milliy o‘zligimiz va ezgu qadriyatlarimizni asrab-avaylash, madaniyat, ma’naviyat va ma’rifat sohalarini rivojlantirishga, yoshlar o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga, vatanparvarlik kabi fazilatlarni yoshlar tarbiyasini takomillashtirishga qaratilgan tadbirlar sifati va mazmunini boyitishga xizmat qilgan;

jamiyatda “ijtimoiy audit” faoliyatini rivojlantirish natijasida insonning jamiyat hayotida amalga oshirilayotgan islohotlarga o‘zini mas’ul va daxldor subyekt sifatida anglashiga xizmat qilishi falsafaning imkoniyat va voqelik kategoriyalari kontekstida ochib berilganligiga oid ilmiy-nazariy g‘oyalardan O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining 2025-2029-yillarga mo‘ljallangan saylovoldi dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining 2025-yil 24-iyuldagi 02/02-76-son ma’lumotnomasi). Natijada, xalqimiz hayotidagi muammolarni hal etishga yo‘naltirilgan va ularning amalga oshirilayotgan islohotlardagi rolini kuchaytirish kabi vazifalarni amalga oshirishda muhim manba bo‘lib xizmat qilgan;

Yangi O‘zbekistonga xos milliy qadriyat, milliy mentalitet transformatsiyasida “hech kimni unutmaslik va ortda qoldirmaslik” tamoyili jamiyatda har bir fuqaroning teng imkoniyatlardan foydalanishni kafolatlashi va ularning hayot sifatini yaxshilashga xizmat qilishi haqidagi ilmiy-nazariy taklif va xulosalardan Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazining 2024-yil uchun mo‘ljallangan chora-tadbirlar dasturining III yo‘nalishida belgilangan “Milliy g‘oya targ‘ibotini kuchaytirish, jamiyatda sog‘lom mafkura, yangi ma’naviy makon, ma’rifatli jamiyatni barpo etishga qaratilgan chora-tadbirlari”ning 19-bandi “Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash doirasida zamonaviy va ta’sirchan targ‘ibot texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish” mavzusidagi targ‘ibot

ishlarini tashkil etish va o‘tkazishda foydalanilgan (Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar institutining 2025-yil 28-iyuldagi 10/483-son ma’lumotnomasi). Natijada, Yangi O‘zbekistonning barqaror rivojlanish tendensiyalari milliy maqsad va vazifalarni ijtimoiy-falsafiy tahlil qilishga xizmat qilgan;

Yangi O‘zbekiston barqaror taraqqiyotini mustahkamlashda yuksak inson kapitali, sifatli ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoyadan foydalanish kabi strategik maqsadlarning amaliy natijadorligini oshirish zaruratiga oid taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston” teleradiokanali tomonidan 2025-yilda efirga uzatilgan “Jarayon” eshittirishining dastur ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston 24” ijodiy birlashmasi davlat muassasasining 2025- yil 21-iyuldagi 05-09-1196-son ma’lumotnomasi). Natijada, jamiyat barqaror taraqqiyotida inson, uning qadr-qimmati, huquq va imkoniyatlarining kafoloti, sifatli ta’lim, malakali tibbiy yordam, kuchli ijtimoiy siyosat kabi omillar Yangi O‘zbekistonning barqaror rivojlanishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari jami 5 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 27 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 17 ta maqola (15 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 226 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqotda qo‘llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Yangi O‘zbekistonda barqaror rivojlanish tendensiyalarini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida barqarorlik, taraqqiyot tushunchalarining metodologik asoslari, Barqaror rivojlanishning umuminsoniy g‘oyalari va ularni jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni, Yangi O‘zbekistonda barqarorlikni ta’minlash tamoyillari, modernizatsiya va yangilanish jarayonlarining funksional xususiyatiga oid ilmiy-nazariy g‘oyalar tadqiq etilgan.

Dissertant Yangi O‘zbekiston tushunchasini mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev boshchiligida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida shakllanayotgan yangi davlat modeli ekanligi va ushbu modelda inson huquq va imkoniyatlari kafolatlanganligi, jamiyat barqarorligi, aholi farovonligi, kuchli ijtimoiy siyosat kabi masalalar asosiy o‘rinni egallaganini tadqiqotda batafsil asoslab bergan. Yangi O‘zbekiston tushunchasi – bu O‘zbekiston Respublikasining so‘nggi yillardagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy islohotlar yo‘lida bosib o‘tayotgan yangilanish jarayonini ifodalovchi konseptual g‘oyadir. Ushbu tushuncha, eng avvalo, xalqimiz milliy taraqqiyotida yangi bosqich boshlangani, mamlakatimiz jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallab borayotgani va shu yo‘lda ko‘plab yangi imkoniyatlar yuzaga kelayotganini anglatadi. Shuningdek, u mamlakatimizning zamonaviy imijini shakllantirishga, yurtimizda inson huquqlari va imkoniyatlari kafolatlangan demokratik davlatni barpo etishga hamda Uchinchi Renessans poydevorini mustahkamlashga zamin yaratadi. “…Yangi O‘zbekiston, avvalo, xalqimiz o‘z milliy taraqqiyotining yangi davriga qadam qo‘yganini, jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin egallayotgan, bu borada oldimizda ko‘plab imkoniyatlar paydo bo‘layotganini anglatadigan tushunchadir”[7] degan ta’rifda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar erkinlik va ozodlik, bunyodkorlik hamda farovonlik yo‘lining yuksak bosqichida ekanligi asoslangan.

Tadqiqotchi fikricha, Yangi O‘zbekistonda “Inson qadri uchun” tamoyilini amaliyotga tatbiq etish natijasida shaxsning hayoti, erkinligi, sha’ni va qadr-qimmati, boshqa daxlsiz huquqlarini muhofaza qilish, ulug‘lash hamda mamlakatning har bir fuqarosi uchun tinch va xavfsiz hayotni, malakali tibbiy xizmat, sifatli ta’lim, kuchli va manzilli ijtimoiy himoya, sog‘lom ekologik muhit, munosib turmush sharoitlari yaratilayotgani jamiyat barqarorligining kafolati bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, Yangi O‘zbekistonda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning bosh bog‘lovchi bo‘g‘inini, o‘zagini Yangi O‘zbekistonda “Avval inson – keyin jamiyat va davlat”, “Hech kimni ortda qoldirmaslik” kabi ezgu g‘oyalar tashkil etadi. Mamlakatimizning o‘z tarixida ilk marotaba Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo‘yicha kengashiga a’zo bo‘lib kirishi O‘zbekistonda inson huquq va erkinliklarini ta’minlash bo‘yicha olib borilayotgan davlat siyosatining xalqaro hamjamiyat tomonidan yuksak e’tirofidir. Shu nuqtayi nazardan, Yangi O‘zbekiston tushunchasini izohlashda islohotlarning amaliy va natijador xarakterini inobatga olgan holda quyidagicha ta’rif berildi: *“Yangi O‘zbekiston – bu fuqarolari erkin, jamiyati adolatli, qonun ustuvorligi ta’minlangan, ochiq va demokratik boshqaruv tizimiga ega, zamonaviy, barqaror rivojlanayotgan davlatdir”.*

“Yangi O‘zbekiston” termini nafaqat davlatning yangicha boshqaruv modeliga asoslangani, balki falsafiy jihatdan teran poydevorga ega bo‘lgan rivojlanish paradigmasi ekanligi bilan ham alohida ahamiyatga ega. Unda inson qadri, farovon turmush tarzi, ijtimoiy adolat, xavfsizlik, o‘zaro hamkorlik hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlashga asosiy e’tibor qaratiladi. Bu esa, o‘z navbatida, mamlakatimizning har taraflama taraqqiy etishiga

[7] Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси.-Тошкент: “O‘zbekiston”, 2021.- Б.26.

hamda barcha sohalarda yangilanish va rivojlanish jarayonlarining jadallashuviga xizmat qiladi.

Tadqiqotda Yangi O‘zbekistonning barqaror rivojlanishi tasodifiy yoki qisqa muddatli hodisa emas, balki milliy davlatchilik va falsafiy tafakkurimizning ko‘p ming yillik tarixiy poydevoriga tayanuvchi qonuniy jarayon ekanligi ko‘rsatib berilgan. U jamiyat hayotidagi moddiy farovonlik va ma’naviy qadriyatlarning davrlararo bosqichma-bosqich yuksalishi hamda tarixiy davomiylik asosida yangilanishi natijasidir. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekistonning barqaror rivojlanish paradigmalariga doir konseptual qarashlar taraqqiyoti antik davrdan hozirgi zamongacha bo‘lgan fundamental tarixiy-falsafiy bosqichlar kesimida tadqiq etilib, uning asosida Yangi O‘zbekiston barqaror taraqqiyotining tizimli rivojlanish klassifikatsiyasi ishlab chiqildi.

Dissertatsiyada barqarorlik yangilanish va modernizatsiya jarayonlari bilan uzviy bog‘liq va ko‘plab umumiyliklarga ega bo‘lsa-da, ular o‘rtasida ma’lum farqlar mavjudligi asoslab berilgan. Yangilanish jarayoni nafaqat davlat va jamiyatning o‘zgarishi, balki insonning ruhiy, ma’naviy holati hamda ijtimoiy ongining o‘zgarishiga qaratilgani bilan ham ahamiyatlidir. Bu borada amalga oshirilayotgan sa’y-harakatlar, eng avvalo, tashqi tizimlarning yangilanishidan ko‘ra, jamiyat tafakkur tarzi, qadriyatlar tizimi hamda mas’uliyat hissini yangilashga, inson qadri tamoyili asosida yangi ijtimoiy ongni shakllantirishga yo‘naltirilgan. Yangilanish – jamiyatning barcha sohalari miqdor o‘zgarishidan sifat o‘zgarishiga o‘tishi, milliy o‘zlikni va tarixiy merosni asragan holda uni zamonaviy kontekstda takomillashtirish jarayonidir. Ushbu jarayon O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda, madaniy merosga bo‘lgan e’tiborda hamda milliy identiklikning tiklanishida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Modernizatsiya va yangilanish bu o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi tushunchalardir. Ularning o‘zaro muvozanati davlat va jamiyat barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Agar modernizatsiya ijtimoiy tizimning tashqi strukturalarini yangilashga qaratilgan bo‘lsa, yangilanish – ichki, ma’naviy-estetik va axloqiy qadriyatlarning o‘zgarishini anglatadi. Shu nuqtayi nazardan “*Modernizatsiya va yangilanish – bu amalga oshiriladigan uzviy jarayonlar bo‘lsa, Yangi O‘zbekiston – ushbu jarayonlar uyg‘unligida rivojlanayotgan insonparvar va adolatli jamiyatdir”*. Modernizatsiya, asosan, jamiyat tafakkurining rivojlanishi va yangilanishi bilan bog‘liq bo‘lgan kompleks ijtimoiy-falsafiy jarayondir. Bu jarayon nafaqat zamonaviy texnologiyalarni joriy etish yoki yangi qonunlarni qabul qilish bilan cheklanadi, balki insonning o‘zligini anglash, zamonaviylik bilan milliy qadriyatlarning uyg‘unligini ta’minlash yo‘lida ongli va maqsadli harakatni ham o‘z ichiga oladi. Shuningdek, modernizatsiya – bu an’anaviy tafakkur bilan zamonaviy dunyoqarashning uyg‘unlashuvini yangilash jarayonidir.

Dissertatsiyada “BMTning 2030-yilgacha bo‘lgan davrda Barqaror rivojlanish maqsadlari”[8]da belgilangan ustuvor vazifalar mamlakatlar rivojlanish dastur va strategiyalariga tatbiq etilishi natijasida taraqqiyotning barqarorlashuvi tenglik

[8]Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT). Sustainable Development Goals (SDGs) Agenda 2030. – New York: United Nations Publication, 2015. – B. 35.

tamoyiliga asoslanishi tadqiqotda batafsil asoslab berilgan. Bu borada quyidagi ikki yondashuv mavjud:

birinchisi, jamiyatdagi barcha resurs va imkoniyatlar odamlar o‘rtasida teng taqsimlanishi lozimligini ilgari suradigan yondashuv (distributiv adolat).

ikkinchisi, moddiy boylik va imkoniyatlar kishilarning salohiyatiga qarab, mehnatining samaradorligiga qarab taqsimlanishini ilgari suruvchi yondashuv (kontributiv adolat). Bu ikki yondashuv bir-biri bilan qarama-qarshi bo‘lib, ulardan biriga qat’iy amal qilinishi jamiyatda ba’zi muammolarning avj olishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shuning uchun bu ikkala yondashuvni o‘zaro integratsiya qilgan holda amalga oshirish jamiyatda barqarorlik ta’minlanadi. Bugungi kunda barqarorlik atamasi kelajak avlodlarning o‘z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlariga ziyon yetkazmagan holda hozirgi davr ehtiyojlarini ta’minlashni anglatuvchi konseptual tushuncha sifatida xalqaro miqyosda keng qo‘llanilmoqda.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasining dastlabki rasmiy ta’rifi 1987-yilda e’lon qilingan BMTning Brundtland komissiyasi ma’ruzasida o‘z aksini topgan. Unga ko‘ra: “Barqaror rivojlanish – kelajak avlodlarning o‘z ehtiyojlarini qondirish qobiliyatiga ziyon yetkazmagan holda, hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan insoniyat taraqqiyotining samarali yo‘nalishidir”[9]. Barqaror rivojlanish deganda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik masalalarni o‘zaro mutanosib ravishda hal etish yo‘li tushuniladi. Lekin konsepsiya va yondashuvlar turfaligiga qaramasdan ta’kidlash mumkinki, *“barqarorlik – jamiyat, tabiat va inson hayotidagi uzluksizlik, ichki uyg‘unlik hamda rivojlanishning muvozanatli kechishini anglatadigan muhim kategoriyadir”.* Shu nuqtayi nazardan, barqarorlik – har qanday jamiyat taraqqiyotining asosiy kafolatidir. Biroq, ushbu maqsadlarga erishish fuqarolarning huquqiy tafakkuri va bilim salohiyatini yuksaltirishni, cheklangan tabiiy-iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishni hamda tashqi xavf-xatarlarga nisbatan barqaror immunitetga ega bo‘lishni talab etadi. Eng muhimi, ijtimoiy evolyutsiyaning bosh drayveri va yetakchi omili inson kapitali ekanligini anglab yetish birlamchi shart hisoblanadi. Shundagina jamiyat barqaror taraqqiyotga erishadi hamda inson turmush tarzi farovonlashadi.

Dissertatsiyada barqarorlik va beqarorlikning o‘zaro nisbati falsafiy tahlil qilingan. Barqarorlik jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ekologik holatlarning muvozanatining saqlanishi, rivojlanishining izchil davom etishiga oid jarayondir. Beqarorlik esa, jamiyatda muvozanatning buzilishi, tartibsizlikning avj olishiga zamin yaratadi. Shuningdek, beqarorlik ko‘pincha inqiroz, tanazzul yoki o‘zgarishlar davrining boshlanishi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Tadqiqotchi fikricha, barqarorlik – har qanday jamiyat taraqqiyotining asosiy kafolati bo‘lib xizmat qiladi. Beqarorlik esa aksincha, jamiyat boshqaruv tizimida muvozanatning buzilishiga, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy keskinliklarning kuchayishiga, rivojlanishda inqirozli holatlarning yuzaga chiqishiga olib keladi. Ammo beqarorlik ba’zida jamiyat taraqqiyotiga turtki bo‘lishi ham mumkin. Misol uchun, jamiyatda beqarorlik tufayli yuzaga kelgan muammolar va inqirozli

[9]United Nations General Assembly (1987) Report of the World Commission on Environment and Development: Our Common Future

holatlarni bartaraf etish nafaqat mavjud ziddiyatlarni yumshatishga, balki ijtimoiy tizimning yangilanishi, tarkibiy islohotlarning chuqurlashuvi va rivojlanish uchun turtki bo‘lib xizmat qilishi ham mumkin.

Dissertatsiyada iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ekologik barqarorlikning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati tizimli tahlil qilingan. Jamiyatning barqaror rivojlanishi ushbu barcha jihatlarning muvozanatlashgan holda taraqqiy etishi natijasida ta’minlanadi. Bu kompleks jarayon bo‘lib, uning natijasi barcha fuqarolar va kelajak avlodlarning farovonligini ta’minlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Umumiy tarzda “barqarorlik” deganda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik qulay muhit tushuniladi. Bu muhit odatda boshqaruv tizimining mustahkam va muvozanatlangan bo‘lishi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur’atlarining barqarorligi, odamlarning ijtimoiy-siyosiy hayotidan qoniqish darajasining yuqoriligi, xavfsizlik va tartibning yuqori darajada saqlanganligi, yaxlit va muvozanatlangan tashqi siyosat kabi xususiyatlarga ega bo‘ladi. Ushbu fikrlarni yagona tizimga birlashtirsak, bugungi kunning fundamental tendensiyalaridan biri bo‘lmish barqaror rivojlanishning umumiy tavsifi kelib chiqadi. *“Barqaror rivojlanishning tushunchasi – bu insoniyatning taraqqiyoti jarayonida tabiat, jamiyat va iqtisodiyot o‘rtasidagi uyg‘unlikni saqlagan holda, hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirib, kelajak avlodlarning ham yashash, rivojlanish va resurslardan foydalanish huquqlarini buzmaslik tamoyiliga asoslanadi”.* Barqarorlik taraqqiyotning asosi sifatida, doimiy, muvozanatlashgan rivojlanish uchun zamin yaratadi. Taraqqiyot esa barqarorlikning rivojlanishi, yangi bosqichga ko‘tarilishi bilan belgilanadi. Ularning uyg‘unligi jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

Dissertantning mulohazalariga ko‘ra, barqarorlik mavjud holat va tizimlarni saqlab qolishga, taraqqiyot esa yangi avlod tizim va jarayonlarini shakllantirish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlariga hamohang tarzda amalga oshirilayotgani, mazkur maqsadlar dunyoda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik vaziyatni yaxshilashga, insoniyat hayot tarzi va turmush farovonligini oshirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo davlatlar ushbu maqsadlarni o‘zining milliy mentalitetiga moslashtirishi, mavjud vazifalarni milliy strategik hujjatlarda belgilashi kerak. Bu esa Yangi O‘zbekistonni barqaror rivojlanish tendensiyalari: milliy maqsad va vazifalarida o‘z ifodasini topadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Yangi O‘zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishning konseptual asoslari”** deb nomlangan bobida Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy omillari, O‘zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyilining o‘rni, milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari konsepsiyasi Yangi O‘zbekistonning inklyuziv rivojlanishining bosqichma-bosqich o‘sib borishidagi ahamiyatiga oid ilmiy-nazariy g‘oyalar tahlil qilingan.

Dissertatsiyada Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish maqsadida 2022-yil 21-fevralda Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2030-yilgacha bo‘lgan davr

uchun 16 ta Barqaror rivojlanish milliy maqsadlari hamda ular bilan bog‘liq bo‘lgan 125 ta vazifalar tahlil etilgan. Dunyo davlatlari qashshoqlikni bartaraf etish, iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, sifatli ta’lim, malakali tibbiyot, ijtimoiy himoya, bandlikni ta’minlash hamda iqlim o‘zgarishini oldini olish shuningdek atrof-muhitni asrab-avaylash kabi sohalarni kechiktirib bo‘lmaydigan sa’y-harakatlarning qabul qilinishi zarurligini tan oladilar. Shu nuqtayi nazardan Yangi O‘zbekistonda barqaror rivojlanish maqsad va vazifalar amaldagi ijrosining bugun kun ruhiyatiga mos ravishda tizimli tahlili keltirilgan. “Umuman, barqaror rivojlanish falsafasi zamonaviy jamiyatning taraqqiyot borasidagi ehtiyojlarini hisobga olish, tabiiy resurslarni saqlash va kelajak avlodlar farovonligini ta’minlash masalalarini o‘zaro uyg‘un ravishda hal etishni nazarda tutadigan barqaror rivojlanish modelini yaratishga qaratilgan”[10].

Tadqiqotda “Harakat tushunchasi butun borliq va olamda, jumladan, kishilik jamiyatida ham yuz berayotgan barcha o‘zgarish va jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Harakat, eng avvalo, har qanday o‘zgarishdir. O‘zgarish esa turli obyektlarning o‘zaro ta’siri natijasidir”[11], - degan ta’rif asoslab berilgan. “*Harakatlar strategiyasining umuminsoniy mohiyati, insonning o‘z hayotini boshqarish, maqsadlariga erishish va o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish qobiliyatiga asoslanganligi bilan ifodalanadi”.*

Dissertatsiyada Harakatlar strategiyasining mantiqiy davomi sifatida Taraqqiyot strategiyasi qabul qilinganligining qiyosiy tahlili keltirilgan. Ularning qiyosiy-falsafiy tavsifi quyidagi mezonlar orqali namoyon bo‘ladi:

birinchidan, “Harakatlar strategiyasi” konseptual jihatdan ichki institutsional islohotlarni chuqurlashtirishga, ya’ni qonun ustuvorligi, ma’muriy va sud-huquq tizimi, ijtimoiy muhofaza, ta’lim va tibbiyotni modernizatsiya qilishga yo‘naltirilgani bilan ajralib turadi. Xususan, “Elektron hukumat”, “Raqamli iqtisodiyot”, “Jamoatchilik nazorati” hamda “Xalq qabulxonalari” kabi institutlarning huquqiy asoslari yaratilishi inson qadrini ustuvor qadriyat darajasiga ko‘tardi. “Taraqqiyot strategiyasi” esa mazkur institutsional poydevorga tayanib, milliy rivojlanishning tashqi siyosiy va xalqaro integratsiyaga oid strategik yo‘nalishlarini ham qamrab olganligi bilan sifat jihatdan yangi bosqichni tashkil etadi;

ikkinchidan, “Harakatlar strategiyasi”da xalqaro hamkorlik masalalari nisbatan cheklangan bo‘lgan bo‘lsa, “Taraqqiyot strategiyasi”da ushbu masalalar alohida yo‘nalish doirasidagi ustuvor maqsad hamda vazifalar sifatida qayd etiladi. Zero, mamlakat xavfsizligi va barqaror rivojlanishini ta’minlashda xalqaro hamkorlik, mintaqaviy integratsiya hamda globallashuv jarayonlarida faol ishtirok etish muhim o‘rin egallaydi;

uchinchidan, “Harakatlar strategiyasi” doirasida mamlakatning xalqaro nufuzi va obro‘si sezilarli darajada ortdi. “Taraqqiyot strategiyasi” esa O‘zbekistonni mintaqaviy va jahon miqyosida yetakchi davlatlardan biriga aylantirishni ko‘zda tutadi. Bu esa Yangi O‘zbekistonning “Taraqqiyot strategiyasi” mamlakatni yangi rivojlanish bosqichida uning strategik maqsadlarini yanada kengaytirish va

[10] Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. - Тошкент: “O‘zbekiston”, 2024. -Б. 38.
[11] Фалсафа қомусий луғат.- Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2004. -Б. 488.

chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Taraqqiyot strategiyasi va BRM jamiyat taraqqiyotini ta’minlashga xizmat qilishi quyidagi jadvalda keltirilgan (Qarang: 1-rasm)[12].

1-rasm

T/r	Taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo‘nalish va maqsadlari	Barqaror rivojlanish maqsadlari	O‘zaro integratsiya
1	Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish *(1–12-maqsadlar)*	BRM 16: Tinchlik, adolat va samarali institutlar BRM 5: Gender tengligi	Davlat boshqaruvini shaffoflashtirish, korrupsiyaga qarshi kurash va inklyuziv qarorlar qabul qilishda fuqarolik jamiyati institutlarining rolini oshirishga qaratilgan.
2	Adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini ta’minlash *(13–20-maqsadlar)*	BRM 16: Tinchlik, adolat va samarali institutlar BRM 10: Tengsizlikni kamaytirish	Sud-huquq tizimi mustaqilligi, inson huquqlarining kafolatlanishi va qonun oldida barchaning tengligi global adolat mezonlari bilan to‘liq mos keladi.
3	Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlari *(21–36-maqsadlar)*	BRM 8: Munosib ish o‘rinlari va iqtisodiy o‘sish BRM 9: Sanoat, innovatsiya va infratuzilma BRM 12: Mas’uliyatli iste’mol va ishlab chiqarish	Yalpi ichki mahsulot (YIM) hajmini oshirish, yashil iqtisodiyot texnologiyalarini joriy etish va sanoatni diversifikatsiya qilish orqali barqaror iqtisodiy ekotizim yaratiladi.
4	Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish *(37–70-maqsadlar)*	BRM 1: O‘ta qashshoqlikka barham berish BRM 2: Ochlikka barham berish BRM 3: Sog‘lik va farovonlik BRM 4: Sifatli ta’lim BRM 6: Toza suv va sanitariya	Aholi ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, ta’lim va tibbiyot sifatini oshirish, ishsizlik va kambag‘allikni qisqartirish orqali inson kapitalining global raqobatbardoshligi ta’minlanadi.

[12] Barqaror rivojlanish milliy maqsad va vazifalarga oid tahliliy ma’lumotlar asosida tayyorlagan. https://uzbekistan.un.org/uz/sdgs

5	Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish *(71–78-maqsadlar)*	BRM 11: Barqaror shaharlar va mahallalar *(Madaniy merosni himoya qilish)* BRM 4: Sifatli ta’lim *(Uzluksiz ma’naviy tarbiya)*	Milliy o‘zlikni anglash, madaniy xilma-xillikni saqlash va bag‘rikenglik (tolerantlik) madaniyatini yuksaltirish orqali ijtimoiy uyg‘unlikka erishiladi.
6	Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish *(79–88-maqsadlar)*	BRM 7: Arzon va toza energiya BRM 13: Iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash BRM 15: Suv va quruqlikdagi ekotizimlar	Orolbo‘yi hududidagi ekologik inqiroz oqibatlarini yumshatish, global iqlim o‘zgarishlariga moslashish va alternativ energetikani rivojlantirish kabi global vazifalarni bajarishga qaratilgan.
7	Mamlakat xavfsizligi, mudofaa salohiyati va ochiq, pragmatik tashqi siyosat *(89–100-maqsadlar)*	BRM 16: Tinchlik va adolat BRM 17: Barqaror rivojlanish yo‘lidagi hamkorlik	Mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash, yaxshi qo‘shnichilik aloqalarini mustahkamlash hamda xalqaro iqtisodiy-siyosiy platformalarda global sheriklikni kengaytirishni ko‘zda tutadi.

1-rasm. Taraqqiyot strategiyasining BRM bilan uyg‘unligi

Dissertatsiyada Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari ezgu g‘oyasi O‘zbekiston taraqqiyotining zamonaviy konseptual yo‘nalishlaridan biri ekani, u jamiyatni tarixiy xotira, milliy qadriyatlar hamda ma’naviy meros asosida rivojlantirishga oid tahlillardan kelib chiqqan holda milliy tiklanish va milliy yuksalish kabi tushunchalar ta’rifi keltirilgan. “*Milliy tiklanish deganda – xalqning tarixiy o‘tmishi hamda ajdodlar ilmiy merosini anglashi va ularni bugungi tafakkur tarzi bilan uyg‘unlashtirishi jarayoni tushuniladi. Ushbu jarayon nafaqat milliy urf-odat, an’ana va qadriyatlarni qayta tiklashni, balki ularni ma’naviy boylik sifatida e’zozlab, kelajak avlodlarga bezavol yetkazishni ham nazarda tutadi”.* Shuningdek, milliy tiklanishga aholi ongida vatanparvarlik hamda mas’uliyat hissini shakllantiradigan, jamiyatni ezgu maqsadlar sari birlashtiradigan ijtimoiy-falsafiy tushuncha sifatida qarash mumkin. *“Milliy yuksalish esa mamlakatimiz taraqqiyotini ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va ma’naviy jihatdan yuqori bosqichga ko‘tarish demakdir”.* Ushbu jarayonni aholining turmush darajasi va turmush sifatining yuksalishiga xizmat qiladigan harakat sifatida izohlash mumkin. Mazkur g‘oya davlat va jamiyat hayotining barcha

sohalarida yangilanish jarayonlarini milliy manfaatlar bilan uyg‘unlashtirishga yo‘naltirilgan.

Dissertatsiyada “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” konsepsiyasi falsafiy jihatdan jamiyat taraqqiyotining uzluksiz va dialektik rivojlanish jarayonini ifodalaydi. U O‘zbekistonning boy tarixiy yutuqlariga tayanib, ajdodlar ilmiy merosini inkor etmasdan, balki uni bugungi kun ruhiyatiga muvofiq holda yangi sifat bosqichiga olib chiqishni nazarda tutadi. Insonning individual kamoloti va yuksalishi orqali umumjamiyat farovonligiga erishishni maqsad qiladi. Shuningdek, mazkur konsepsiya jamiyatning nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatidan yangilanishini anglatadi. Binobarin, Yangi O‘zbekistonda ma’naviy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan ma’naviy va ijtimoiy-falsafiy yo‘nalish sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqotchining fikricha, “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” konsepsiyasi – bu oddiy shior emas, balki Yangi O‘zbekistonning mafkuraviy, siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy taraqqiyotining asosiy yo‘nalishidir. U xalqning o‘z kuchiga ishonchi, milliy qadriyatlarga tayanib, zamonaviy va taraqqiy etgan davlat qurish istagini ifoda etadi. Shuningdek, konsepsiya doirasida fuqarolarning ijtimoiy huquq va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishning yangicha tizimi yaratildi. Xususan, “Besh muhim tashabbus”, “Yoshlar - kelajagimiz”, “Obod qishloq”, “Obod mahalla”, “Ayollar daftari”, “Temir daftar” kabi ijtimoiy dasturlarning amalga oshirilishi, aholining ertangi kunga bo‘lgan ishonchini kuchaytirmoqda.

Dissertatsiyada ta’lim jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sohalarda yuzaga keladigan muammolarning yechimini topishga katta ta’sir ko‘rsatishi ilmiy asoslangan. Shu nuqtayi nazardan, mamlakatimizda ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, ta’lim jarayonini zamonaviy dasturlar asosida tashkil etish, ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini zamonaviy laboratoriyalar, elektron doskalar hamda elektron o‘quv adabiyotlari bilan boyitish, ta’limni ishlab chiqarish bilan integratsiya qilish, nazariya va amaliyot uyg‘unligiga erishish hamda hayot davomida ta’lim olishni rag‘batlantirish jamiyat taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi. Bu borada, mehnat bozorida bilimli, raqobatga bardosh beradigan, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq eta oladigan, ishlab chiqarish hamda kundalik hayotdagi kasb-hunar sohalarini takomillashtirishga qaratilgan islohotlar BMTning “Ta’lim-hamma uchun”, “Ta’lim – butun umr davomida”gi loyiha va konsepsiyalariga hamohang ravishda olib borilmoqda. Shuningdek, ta’lim tizimiga qaratilayotgan e’tibor “Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi” degan ezgu g‘oya asosiy shiorga aylandi. Demak, maktab ta’lim tizimini isloh qilish butun ta’lim tizimini rivojlantirish hamda jamiyatni modernizatsiya qilishga zamin yaratadi. Ta’limga kiritilgan sarmoya esa eng samarli investitsiya hisoblanadi. Ta’lim sohasiga keng miqyosda investitsiya ajratish quyidagi ijobiy natijalarga olib keladi:

birinchidan, ta’lim olish orqali fuqarolarning intellektual salohiyati ortib, ular yuqori malakali mutaxassislarga aylanadi; ularda tanqidiy (kritik), ijodiy (kreativ), muloqot (kommunikativ) va hamkorlik (kollaborativ) ko‘nikmalari shakllanadi. Natijada, ushbu fuqarolar jamiyatning faol qatlami va uning drayver kuchiga aylanadi;

ikkinchidan, sifatli ta’lim natijasida zamonaviy bilimga ega aholi salmog‘i oshadi, mehnat unumdorligi yaxshilanadi hamda aholi farovonligi yuksaladi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar ishlab chiqarish jarayoniga tatbiq etilishi asnosida iqtisodiy salohiyat mustahkamlanadi;

uchinchidan, aholining intellektual salohiyati ortishi natijasida ma’naviy dunyoqarashi kengayadi, jamiyatda ijtimoiy adolat, tenglik, birdamlik, hamjihatlik, o‘zaro ishonch, islohotlarga daxldorlik hissi ortadi. Ayniqsa, insonparvarlik, ma’rifatparvarlik qadriyatlarining qaror topishi natijasida jamiyatda savodsizlik va jinoyatchilik kamayadi;

to‘rtinchidan, xalqaro miqyosidagi startap loyihalarga qatnashish imkoniyati rivojlanadi, investitsiya oqimi faollashadi, ichki turizm rivojlanadi, mamlakat barqaror taraqqiyoti mustahkamlanadi. Bu esa Birlashgan Millatlar Tashkilotining barqaror rivojlanish maqsadlari jamiyatda to‘laqonli amalga oshishini ta’minlaydi. Shuning uchun ham ta’limga investitsiya kiritish yuksak samara beruvchi va ustuvor yo‘nalish hisoblanadi. Davlat va jamiyat rivojlanishining mustahkam poydevori bo‘lgan ta’lim sohasiga ajratiladigan mablag‘lar ortishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertant mulohazalariga ko‘ra, Yangi O‘zbekistonda islohotlarning amaliy natijadorligini ta’minlash maqsadida davlat va jamiyat boshqaruvining izchil dasturlari hisoblangan “2017-2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi”, “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi” hamda uzoq muddatli maqsadlarni qamrab olgan “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi” kabi konseptual strategik normativ-huquqiy hujjatlar majmuasi hayotga tatbiq etildi. “Inson – jamiyat – davlat” tamoyillari asosida “xalq qabulxonalari” tashkil qilindi, shuningdek, “mahalla tizimida ishlash”, “xalq ichiga kirish”, “ularning muammolariga quloq tutish”, “muammolarni joyida hal etish” “tashvishlariga sherik bo‘lish” tamoyillari asosida amalga oshiriladigan mexanizmlar yo‘lga qo‘yildi. O‘zbekistonda aholining ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish hamda yangi sifat bosqichiga ko‘tarishga qaratilgan ijtimoiy muhit yaratildi. Bu jarayonlar Barqaror rivojlanish maqsadlari hamda milliy vazifalarga to‘liq mos kelgan holda bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy hamda ma’naviy sohalarda barqarorlikni ta’minlashda eng avvalo, ma’naviy-ma’rifiy muassasalarning o‘rni beqiyos. Xususan, yoshlarimizda yuksak ma’naviy qadriyatlarni vujudga kelishi, ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilishi, targ‘ibot-tashviqot tadbirlarini hayotiyligi va uni ta’sirchanligini oshirishga qaratilgan islohotlar Yangi O‘zbekiston taraqqiyotini ta’minlashda mustahkam poydevordir.

Dissertatsiyaning “**Yangi O‘zbekistonning barqaror taraqqiyotida milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish mexanizmlari”** deb nomlangan uchinchi bobida O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlar tizimida barqaror rivojlanish vazifalarini amalga oshirish mexanizmlari, Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar tasnifi: intensiv shakldagi barqaror infratuzilmani rivojlantirish tamoyillari, boshqaruvning barcha bosqichlarida davlat organlarining samaradorligi, hisobdorligi va shaffofligini yuksaltirishda Yangi O‘zbekistonning

ustuvor vazifalariga oid ilmiy-nazariy g‘oyalarining bugungi kundagi ahamiyati tizimli tahlil qilingan.

Dissertatsiyada, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash mamlakat iqtisodiyotining uzoq muddatda o‘sishini ta’minlash, rivojlanishini davomiy va keng qamrovli qilish, ayni vaqtda atrof-muhitga va ijtimoiy muhitga zarar keltirmasdan taraqqiy etish demakdir. Shuningdek, tadqiqotda iqtisodiy o‘sishning intensiv va ekstensiv turlarining jamiyat taraqqiyotini yuksaltirishdagi o‘rniga oid ilmiy tahlillar keltirilgan. Intensiv o‘sish ishlab chiqarish sohalarini sifat jihatdan takomillashtirish va resurslardan samarali foydalanish hisobiga amalga oshiriladi. Bunda iqtisodiy o‘sishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi inson kapitali, unga beriladigan imkoniyatlar va tanlov erkinligidir. Ekstensiv o‘sish esa ishlab chiqarish omillarining miqdor jihatdan ko‘paytirilishi hisobiga ta’minlanadi. Natijada jamiyat qo‘shimcha tabiiy, mehnat va investitsiya resurslarini jalb etish orqali milliy mahsulot hajmining o‘sishiga erishadi[13].

Tadqiqotchining ta’kidlashicha, intensiv iqtisodiy o‘sish sharoitida aholiga keng tanlov imkoniyatlarining berilishi shaxsiy daxldorlik orqali jamiyatda jamoaviylik hamda hamjihatlik ruhiyatini takomillashtirmoqda. Xususan, Tashabbusli budjetlashtirishni yanada takomillashtirish va ovoz berishda sog‘lom raqobat muhitini yaratish maqsadida “Bir fuqaro – bir ovoz” tizimi joriy etildi. Ochiq byudjet tizimi odamlarda tegishli muammolarni bartaraf etish va hayot sifatini yaxshilashga daxldorlik hissini oshirmoqda. Tashabbusli budjet loyihalarini samarali amalga oshirish jarayonida fuqarolar o‘z ehtiyojlaridan kelib chiqib, eng ustuvor hududiy loyihalarga ovoz beradilar. Bu orqali mahalliy darajadagi dolzarb muammolar aniqlanib, aholi farovonligi va hayot sifati yaxshilanadi. Qaror qabul qilish jarayonlarining ochiq hamda shaffof kechishi tuman va shahar hokimliklari, fuqarolik jamiyati institutlari hamda nodavlat tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirib, mamlakatda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotchi mulohazalariga ko‘ra, mamlakat farovonligi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jarayonlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Iqtisodiy rivojlanishga erishmasdan, mamlakatning iqtisodiy salohiyatini oshirmasdan hamda aholi ehtiyojlarini qondirmasdan turib insonga keng imkoniyatlar yaratib bo‘lmaydi. Shu sababli dissertatsiyada kambag‘allik tushunchasining mazmun-mohiyati va uni bartaraf etish mexanizmlari tizimli tahlil qilingan. O‘zbek tilining izohli lug‘atida kambag‘allik so‘zi “hayotiy, tirikchilikka zarur narsalarning yetishmaslik holati”[14]. “Kambag‘allik” so‘zi bir qancha so‘zlar bilan ifodalanadi. Jumladan, qashshoq, faqir, nochor, kam ta’minlangan, muhtoj, bechora, ijtimoiy himoyaga muhtoj kabilar bo‘lib, ushbu so‘zlar ma’lum ma’noda bir-biridan farq qilib, o‘zining qo‘llaniladigan joylari mavjudligini ko‘rsatadi, shu sababli, “kambag‘allik” tushunchasiga yagona ta’rif mavjud emasligi ta’kidlanadi. Uning mohiyatini quyidagicha izohlash mumkin. Kambag‘allik insonning munosib turmush kechirishi uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy resurslarning yetarli emasligi bilan tavsiflanadigan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisadir. Falsafiy

[13] Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi.-Toshkent: LESSON PRESS, 2021.-B.478.

[14] Мадвалиев А. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2021.-Б.306.

jihatdan esa kambag‘allik nafaqat moddiy ta’minotning pastligi, balki shaxsning ta’lim olish, sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish, mehnat qilish va jamiyat hayotida faol ishtirok etish imkoniyatlarining cheklanishini ham anglatadi.

Jahon amaliyotida “kambag‘allik” va “qashshoqlik” tushunchalariga nisbatan hamda ularni baholash borasida yagona, universal ta’rif mavjud emas. Chunki har bir mamlakat o‘zining iqtisodiy salohiyati va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda kambag‘allik mezonlarini o‘zicha belgilaydi va tavsiflaydi. Xususan, BMT ta’rifiga ko‘ra: “Qashshoqlik – insonni hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan daromad va resurslar yetishmasligi, bundan tashqari, ochlik va to‘yib ovqatlanmaslik, sog‘liqni saqlash, ta’lim yoki boshqa asosiy xizmatlardan foydalanishda cheklovlarning mavjudligi, turar joyning yo‘qligi, xavfli tabiiy va texnogen muhitda hamda ijtimoiy tengsizlik sharoitida yashashiga nisbatan aytiladi”[15]. Ushbu ta’rifdan kelib chiqqan holda “*qashshoqlik bu – insonning turmush sharoitida moddiy ne’matlarning yetishmasligi, ehtiyojlarini ta’minlanganlik darajasining pasayishi, jisman va ma’nan yuksalishiga to‘sqinlik qiluvchi ochlik, tibbiy xizmat, sifatli ta’lim kabi asosiy ne’matlardan bebahra qolish, uy-joyga ega bo‘lmaslik holatini ifodalaydi”*- deb tarif berilgan.

Dissertantning ta’kidlashicha, global muammo sifatida e’tirof etilayotgan ekologik vaziyatning oldini olish mexanizmlarini ishlab chiqish barqaror rivojlanishning ustuvor maqsadlaridandir. Bu borada mamlakatimizda “Yashil makon” umummilliy loyihasi hamda “yashil iqtisodiyot” doirasida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Yashil iqtisodiyot tabiiy resurslardan tejamkor foydalanishga asoslangan, ekologik muhofaza va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlovchi modeldir. Mazkur tushuncha BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP) tomonidan 2008-yilda rasman ilgari surilgan bo‘lib, u inson farovonligi va ijtimoiy adolatni ta’minlash bilan birga ekologik xavflarni kamaytirishni nazarda tutadi[16]. Ushbu model uglerod chiqindilarini qisqartirish, qayta tiklanuvchi energiya, barqaror qishloq xo‘jaligi va yashil texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan. Amaliyotda “Yashil makon” loyihasi doirasida barcha hududlarda “yashil bog‘lar” hamda “yashil jamoat parklari” barpo etilib, ekologik huquqbuzarliklarga nisbatan javobgarlik kuchaytirilmoqda. Shuningdek, yangi turar joylar qurilishida “yashil hudud” normativlariga rioya etish, davlat va ta’lim muassasalarida yashil maydonlarni kengaytirish muhim vazifa qilib belgilangan. Zero, har bir fuqaro va oilaning ushbu jarayondagi faol ishtiroki jamiyatda barqaror ekologik muhitni qaror toptirishning asosiy omilidir.

Dissertatsiyada boshqaruvning barcha bosqichlarida davlat organlarining hisobdorligi va shaffofligini oshirish hamda yuqori samaradorlikka erishish Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining ustuvor vazifasi ekanligi nazariy jihatdan tahlil qilingan. Xususan, samaradorlik tushunchasi biror-bir faoliyatning belgilangan maqsadga erishish darajasini anglatadi. Mohiyatan, samaradorlik kutilgan natijaga erishish uchun sarflangan resurslar o‘rtasidagi nisbatdir. Falsafiy nuqtayi nazardan esa samaradorlik maqsadga muvofiqlikni, vositalarning to‘g‘riligini hamda

[15]BMTning ijtimoiy himoya borasida yuqori darajadagi Butunjahon sammitidan. https://www.un.org/ru.

[16] United Nations Environment Programme (UNEP). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. – Nairobi: UNEP, 2011. – P. 16.

erishilgan natijalarning amaliy ahamiyatini belgilaydi. Demak, *samaradorlik – faoliyat natijadorligini o‘lchaydigan asosiy mezondir.* Davlat va jamiyat boshqaruvi kontekstida bu tushuncha davlat organlari faoliyati maqsad va vazifalarini amalga oshirishning eng maqbul yo‘llari hamda natijadorligini ifodalaydi. Agar davlat boshqaruv idoralari o‘z faoliyatini aholi ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etsa, u samarali faoliyat hisoblanadi.

Dissertant mulohazalariga ko‘ra, Yangi O‘zbekistonning barqaror taraqqiyotida milliy vazifalarni amalga oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy, strategik mexanizmlarini amaliyotga joriy etish natijasida, birinchidan, davlatning iqtisodiy salohiyatini oshirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, xizmat ko‘rsatish ko‘lamini tubdan yaxshilash, mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda texnologiyalarga asoslangan iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirish orqali barqaror ijtimoiy muhit yaratildi. Ikkinchidan, atrof-muhit va ekologik muammolarni bartaraf etish uchun resurslarni barqaror boshqarish, “yashil energiya” hamda ekologik toza texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish ko‘lami kengaytirildi. Uchinchidan, ijtimoiy sohalarda sifatli ta’lim, malakali tibbiy yordam, kuchli ijtimoiy himoyani yo‘lga qo‘yish hamda ehtiyojmand aholi qatlamlariga alohida e’tibor qaratish natijasida inson qadri va farovonligi islohotlarning bosh mezoniga aylandi. To‘rtinchidan**,** xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, yaxshi qo‘shnichilik siyosatini yuritish hamda tajriba almashish orqali Barqaror rivojlanish maqsadlarini birgalikda amalga oshirishning yangi tizimi shakllandi. Natijada ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik omillarning o‘zaro integratsiyasi mamlakatning barqaror va izchil taraqqiyotiga xizmat qilmoqda.

Dissertatsiyaning “**Yangi O‘zbekistonda barqaror taraqqiyotning ijtimoiy va ma’naviy-ma’rifiy poydevorini mustahkamlash istiqbollari”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishda barqaror rivojlanishning ijtimoiy-ma’naviy omillari hamda “O‘zbekiston – 2030 strategiya”si doirasida barqaror taraqqiyotning institutsional va strategik istiqbollariga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, Yangi O‘zbekiston barqaror rivojlanishining bosh qonuniyati sifatida iqtisodiyot, siyosat va ma’naviyat o‘rtasidagi dialektik aloqadorlikning zamon hamda makon nuqtayi nazaridan qiyosiy tahlili keltirilgan.

Dissertatsiyada O‘zbekistonning mustaqillikka erishgan dastlabki yillaridan bugungi Yangi O‘zbekiston bosqichigacha bo‘lgan tarixiy transformatsiyasi ushbu uchlik (iqtisodiyot, siyosat va ma’naviyat)ning bir-birini taqozo etuvchi qonuniyat ekani ilmiy jihatdan asoslangan. Jumladan, mustaqillikning ilk davrlarida “Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi” tamoyili o‘tish davri inqirozlarini bartaraf etishda muhim omil bo‘lgan bo‘lsa, Yangi O‘zbekiston sharoitida bu bog‘liqlik sifat jihatidan yanada takomillashayotgani bugungi kun ruhiyati asosida tahlil qilingan.

Tadqiqotda har qanday mamlakat, eng avvalo, muayyan rivojlanish konsepsiyalari, yondashuvlari va strategiyalari asosida taraqqiy etishi ko‘rsatib berilgan bo‘lib, bu borada “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi mamlakatimiz rivoji uchun dasturulamal vazifasini o‘tamoqda. Ushbu strategiya nafaqat amaliy harakatlar rejasi, balki inson, jamiyat va davlat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar

kollaboratsiyasi, milliy o‘zlik, milliy mentalitet hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan taraqqiyot falsafasining mujassam ko‘rinishidir.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi kelajak haqidagi ongli tasavvur, ijtimoiy ong va tafakkur mahsuli bo‘lib, jamiyat barqaror taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiquvchi ijtimoiy-iqtisodiy hamda ma’naviy-intellektual poydevordir. Mazkur strategiya mamlakat taraqqiyotini uzoq muddatga mo‘ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va madaniy-ma’rifiy sohalarda barqaror ta’minlashga qaratilgan tizimli dastur hisoblanadi. Undan ko‘zlangan burch va maqsad mamlakatda “Uchinchi Renessans” tamal toshini qo‘yish bilan izohlanadi. Uchinchi Renessans esa ilm-fan va ma’rifatga asoslangan, milliy g‘urur hamda zamonaviy tafakkur uyg‘unlashgan yangi davr – O‘zbekistonning milliy uyg‘onish bosqichidir. *Uchinchi Renessans – bu O‘zbekistonning hozirgi bosqichida ilm-fan, ma’rifat, madaniyat va innovatsiyalar sohalarida yangi uyg‘onish jarayonini shakllantirishni ifodalovchi tushunchadir*. Uchinchi Renessans – O‘zbekiston tarixida buyuk ajdodlar merosiga tayanib, zamonaviy bilim, texnologiya va ma’naviyat asosida yangi taraqqiyot bosqichini yaratish harakatidir.

Yangi O‘zbekistonda ma’naviy sohani rivojlantirish uchun eng avvalo ta’lim tizimiga asosiy investitsiya oqimini jalb qilinayotganligi ma’naviy soha davlat siyosati darajasi sifatida qaralayotganligiga ishoradir. Buning uchun ma’rifatparvar jadid namoyandalarini “Najot – ta’limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi”[17] degan so‘zlari barcha davlat va jamiyat boshqaruvi xodimlari faoliyatining amaliy harakatiga aylanishi kerak. Jamiyatning ozuqa mezoni bu – ma’naviy yuksalishdir. Bunday qonuniyatlarning ziddiyatli tahlili va uning dialektik rivojiga oid vatanimiz tarixida og‘riqli misollar mavjud. Jumladan, xonliklarning parchalanishi, o‘zaro konsensusga kelinmaganligi, ularning tashqi mustamlakachilarga siyosiy qaramlikka sabab va oqibatlarini misol keltirish mumkin.

Tadqiqotchi fikricha, bugungi kunda yoshlar ongini virtual olamdagi g‘arazli targ‘ibot materiallari, soxta qadriyatlar hamda g‘oyaviy tahdidlardan muhofaza qilish ijtimoiy-ma’naviy xavfsizlikning ajralmas qismi hisoblanadi. Buning uchun yoshlarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatuvchi axborot makonini ma’rifiy, tarbiyaviy va milliy qadriyatlarga asoslangan kontent bilan boyitish orqali barqaror ijtimoiy-ma’naviy muhitni ta’minlash mumkin. Ma’naviyat uchun eng katta xavflardan biri jamiyatda loqayd va beparvo kishilar sonining ortib borishidir, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu kabi illatlarning oldini olish uchun buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaho merosi hamda yengilmas sarkardalarimizning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratish lozim. Vatanparvarlik timsoli sifatida gavdalangan Najmiddin Kubro: “Muvaffaqiyatni – sa’y-harakatda, muvaffaqiyatsizlikni esa loqaydlik va dangasalikda ko‘rdim”[18], deb bejiz ta’kidlamaganlar.

---

[17] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. https://president.uz/oz/lists/view/5774

[18] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. https://president.uz/oz/lists/view/2228

Bugungi axborotlashgan davrda keskin kurash va global raqobat hukm surmoqda. Barcha mamlakatlarning barqaror taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, tinchlik, xavfsizlik hamda milliy-etnik muammolar kuchayayotgan bir sharoitda davlat boshqaruvida fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini kuchaytirish har qachongidan ko‘ra dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, davlat funksiyalarini bosqichma-bosqich fuqarolik jamiyati institutlariga o‘tkazish, jamoatchilik nazorati va ijtimoiy audit faoliyatini takomillashtirish hamda ular o‘rtasida samarali hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish muhimdir. Negaki, jamoatchilik nazorati va ijtimoiy audit davlat va jamiyat barqaror rivojlanishi uchun asosiy omillardan hisoblanadi. Shu bois, avvalo, jamoatchilik nazorati va ijtimoiy audit tushunchalarining mazmun-mohiyatini teran anglab olish zarur.

Dissertatsiyada jamiyat taraqqiyoti bevosita aholining islohotlarga befarq emasligida, ularda daxldorlik tuyg‘usi shakllanganligiga bog‘liq jarayon ekanligi asoslab berilgan. Daxldorlik tuyg‘usining muhim omillaridan biri bu – jamoatchilik nazorati hisoblanadi. Jamoatchilik nazoratini amalga oshirish mexanizmlarini jamiyatga tatbiq etishda, avvalo, ommaviy axborot vositalari hamda fuqarolik jamiyati institutlarini rolini kuchaytirishni taqozo etadi. “Bizning bosh maqsadimiz-yurtimizda xalq hokimiyatini nomiga emas, balki amalda joriy qilishdan iborat”[19].

